

**RAQAMLI MUHITDA JURNALISTLARNING HUQUQIY MAQOMI: ZAMONAVIY
TENDENSIYALAR VA MUAMMOLAR****Choriyeva Charos Burhonovna**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi mutaxassisligi magistranti

charoschorieva2703@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.19879346>

Annotatsiya. Mazkur maqola raqamli muhitda jurnalistlarning huquqiy maqomi va transformatsiyasi masalalarini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda an'anaviy jurnalistika tushunchasining raqamli davr talablari asosida o'zgarishi, xususan, mustaqil blogerlar, inflyuenserlar va fuqarolik jurnalistikasining huquqiy maqomi bilan bog'liq muammolar yoritilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi, 2025-yilda ishlab chiqilgan yangi qonun loyihalari hamda xalqaro tashkilotlar (RSF, INMA, IFJ) hisobotlari tahlil qilingan. Shuningdek, sun'iy intellekt tizimlarida jurnalistik kontentdan foydalanish va mualliflik huquqini himoya qilish, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistik faoliyatning o'ziga xos jihatlari hamda jurnalistlar huquqlarining huquqiy kafolatlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: raqamli jurnalistika, huquqiy maqom, bloger, inflyuenser, fuqarolik jurnalistikasi, sun'iy intellekt, matbuot erkinligi, axborot daxlsizligi, huquqiy kafolatlar.

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному анализу правового статуса и трансформации деятельности журналистов в цифровой среде. В исследовании рассматривается эволюция традиционного понятия журналистики в соответствии с требованиями цифровой эпохи, в частности, проблемы, связанные с правовым статусом независимых блогеров, инфлюенсеров и гражданской журналистики. В статье анализируется национальное законодательство Республики Узбекистан, новые законопроекты, разработанные в 2025 году, а также отчеты международных организаций (RSF, INMA, IFJ). Выдвигаются научно обоснованные выводы и предложения по использованию журналистского контента в системах искусственного интеллекта и защите авторских прав, особенностям журналистской деятельности в социальных сетях и правовым гарантиям прав журналистов.

Ключевые слова: цифровая журналистика, правовой статус, блогер, инфлюенсер, гражданская журналистика, искусственный интеллект, свобода прессы, информационная неприкосновенность, правовые гарантии.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the legal status and transformation of journalists within the digital environment. The study examines the evolution of traditional journalistic concepts in response to digital era requirements, specifically addressing legal challenges surrounding independent bloggers, influencers, and citizen journalism. The paper evaluates the national legislation of the Republic of Uzbekistan, including new legislative drafts from 2025, alongside reports from international organizations such as RSF, INMA, and the IFJ. Furthermore, the author presents scientifically grounded conclusions and proposals regarding the utilization of journalistic content in artificial intelligence systems, copyright protection, the specifics of professional activity on social media platforms, and legal safeguards for journalists' rights.

Keywords: digital journalism, legal status, blogger, influencer, citizen journalism, artificial intelligence, press freedom, information integrity, legal guarantees.

Kirish. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va internetning barcha sohalarga kirib borishi jurnalistika kasbining an'anaviy chegaralarini tubdan o'zgartirmoqda. Agar o'tgan asrning oxirgi choragida jurnalist deganda, asosan, gazeta, jurnal, televideniye yoki radio orqali ma'lumot tarqatuvchi shaxs tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda vaziyat butunlay o'zgaragan.

Onlayn nashrlar, ijtimoiy tarmoqlar, blogosfera va sun'iy intellekt vositalari jurnalistika faoliyatining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Ushbu o'zgarishlar jurnalistlarning huquqiy maqomi masalasini yangicha talqin qilishni taqozo etadi.

O'zbekistonning o'zida so'nggi yillarda axborot siyosatida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "jurnalist va blogerlarning obyektiv tanqidi eski qolipdagi rahbarlarning xato va kamchiliklariga ishora qilib, ularni ish uslubini o'zgartirishga va mas'uliyatini oshirishga majbur qiladi"¹. 2016-yildan buyon mamlakatda OAV soni 2140 taga yetgan bo'lib, ularning 65 foizi nodavlat media hisoblanadi. Onlayn nashrlar soni esa 745 taga ko'paygan. Biroq xalqaro ekspertlarning baholashicha, sohada senzura, kuzatuv va o'z-o'zini senzura qilish hali ham mavjud bo'lib, ayrim mustaqil onlayn nashrlar rasmiy ro'yxatdan o'tishda muayyan ehtiyotkorlik ko'rsatmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi - raqamli muhitda jurnalistlarning huquqiy maqomini uch asosiy jihatda: raqamli jurnalistika tushunchasining mazmuni, ijtimoiy tarmoqlarda jurnalistik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari va jurnalistlar huquqlarining huquqiy kafolatlari doirasida kompleks tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. An'anaviy qonunchilikda jurnalist tushunchasi, asosan, ommaviy axborot vositalari bilan mehnat yoki shartnomaviy munosabatlar orqali bog'langan shaxs sifatida ta'riflanadi. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ushbu tushunchaga quyidagicha izoh berilgan: "jurnalist - mehnatga oid yoki boshqa shartnomaviy munosabatlar asosida ommaviy axborot vositalari uchun xabarlar va materiallarni to'plash, tahlil etish, tahrir qilish, tayyorlash hamda tarqatishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs"². Ushbu ta'rifda ikki muhim elementga urg'u berilgan: birinchidan, mehnat yoki shartnomaviy munosabatlarning mavjudligi; ikkinchidan, faoliyatning bevosita ommaviy axborot vositalari bilan bog'liqligi. Biroq raqamli transformatsiya jarayonlari mazkur an'anaviy ta'rif doirasiga to'liq sig'maydigan yangi hodisalarni - mustaqil blogerlar, ijtimoiy tarmoqlardagi kontent yaratuvchilar "influenserlar" va jamoat jurnalistlari faoliyatini yuzaga keltirdi. Xususan, "fuqarolik jurnalistikasi" fenomeni kasbiy jurnalist ta'rifining qayta ko'rib chiqilishini taqozo etmoqda. Chunki bu turdagi faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar ko'pincha hech qanday OAV bilan rasmiy munosabatga ega bo'lmaydi, lekin ijtimoiy ahamiyatga molik axborotni to'playdi, tahlil qiladi va keng auditoriyaga yetkazadi.

O'zbekiston axborot makonida so'nggi yillarda onlayn nashrlar soni sezilarli darajada o'sdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, onlayn nashrlar soni 745 taga yetgan va bu ko'rsatkich doimiy o'sish tendensiyasiga ega³.

Onlayn nashrlarning huquqiy maqomi an'anaviy OAVlarnikidan bir qator jihatlari bilan farq qiladi.

¹ **Mirziyoyev, Sh. M.** OAV va blogerlar bilan uchrashuvdagi nutqi: 2023-yil 27-dekabr / Sh. M. Mirziyoyev // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: <https://president.uz>

² **O'zbekiston Respublikasining Qonuni.** Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida: 1997-yil 5-may, 402-I-son (2021-yil 29-sentabrda o'zgartirishlar bilan). – 3-modda // Lex.uz: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-9540>

³ **O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi.** Rasmiy statistik ma'lumotlar: 2024-yil yakunlari bo'yicha hisobot. – Toshkent: AOKA, 2025. – B. 12.

Xususan, Qozog‘iston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunida “onlayn nashr” maxsus tushuncha sifatida kiritilgan bo‘lib, bu model O‘zbekiston qonunchiligi uchun ham o‘ziga xos huquqiy namunadir. 2025-yil may oyida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida muhokama qilingan yangi qonun loyihasida “inflyuyenser” tushunchasini huquqiy muomalaga kiritish taklif etilgan. Ushbu hujjatga ko‘ra, oddiy blogerlar va influencerslar o‘rtasida farqlash kiritilib, influencerslarga nisbatan jiddiyroq mas‘uliyat va majburiyatlar belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bu raqamli muhitda faoliyat yurituvchi shaxslarning huquqiy maqomini differensiyalash tendensiyasidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ekspertlar “inflyuyenser” va “jurnalist” tushunchalarining huquqiy chegaralarini aniq belgilash muhimligini ta’kidlaydi, chunki amaliyotda ushbu ikki toifa ko‘pincha o‘zaro ustma-ust tushishi mumkin⁴.

Sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalarining jurnalistikaga kirib kelishi sohada yangi huquqiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xalqaro yangiliklar media assotsiatsiyasi tomonidan 2025-yil sentabrda e‘lon qilingan “Asosiy tamoyillar” hujjatida ta’kidlanishicha, “jurnalistikaning ishi roziliksiz, mualliflik ko‘rsatilmadan va adolatli kompensatsiyasiz olinmoqda”⁵. INMA hujjatida SI tizimlarida jurnalistik kontentdan foydalanish uchun litsenziyalash mexanizmlarini joriy etish, mualliflik huquqiga rioya qilish va jurnalistlarning o‘z asarlari ustidan nazoratini kafolatlash talab etiladi. Xalqaro jurnalistlar federatsiyasi esa “buy-out” shartnomalariga qarshi kurashni kuchaytirish lozimligini bildiradi - bunday shartnomalarda jurnalist barcha intellektual huquqlarini qo‘shimcha to‘lovsiz ish beruvchiga topshirishga majbur bo‘ladi⁶.

O‘zbekiston qonunchiligida sun‘iy intellektdan foydalanishning jurnalistikaga oid jihatlari hali maxsus tartibga solinmagan. Ammo 2022-yilda qabul qilingan “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi Qonun doirasida jurnalistlardan axborot xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etish talab qilinadi⁷. Shu bilan birga, SI vositalari yordamida yaratilgan kontentning mualliflik huquqi subyekti kimligi - algoritmi yaratgan dasturchimi, uni ishga tushirgan jurnalistmi yoki platforma egasimi - masalasi ochiqlicha qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, YouTube, Facebook, Instagram, TikTok) bugungi kunda nafaqat muloqot, balki axborot tarqatishning asosiy kanallaridan biriga aylandi. Ushbu platformalarda jurnalistlar o‘z materiallarini e‘lon qilish, tezkor xabarlar berish va auditoriya bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega. Biroq huquqiy nuqtayi nazardan ijtimoiy tarmoqlar “ommaviy axborot vositasi” tushunchasining an’anaviy doirasiga to‘liq mos kelmaydi. Chunki ularda markazlashtirilgan tahririyat siyosati mavjud emas, kontentni joylashtirish va o‘chirish bo‘yicha asosiy huquq ko‘pincha platforma egasiga tegishli bo‘ladi.

O‘zbekiston qonunchiligida ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumot tarqatuvchi shaxslarga nisbatan “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonun normalari bevosita tatbiq etilmaydi.

Qonunning 3-moddasiga ko‘ra, ommaviy axborot vositasi deganda - *“belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan gazeta, jurnal, byulleten, tele-, radio-, kino-, videodasturlar,*

⁴ Karimov, B. A. Raqamli muhitda bloger va jurnalist maqomining huquqiy farqlari / B. A. Karimov // Huquq va boshqaruv. – 2024. – № 3. – B. 58-62.

⁵ International News Media Association (INMA). INMA unveils global Basic Principles to safeguard journalism in the digital and AI era [Electronic resource]. – 2025. – 15 Sept. – URL: <https://www.inma.org/blogs/basic-principles/post.cfm/inma-unveils-global-basic-principles>

⁶ International Federation of Journalists (IFJ). Authors’ rights: policy brief [Electronic resource]. – Brussels: IFJ, 2025. – P. 4-6. – URL: <https://www.ifj.org/authors-rights>

⁷ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kiberxavfsizlik to‘g‘risida: 2022-yil 15-aprel, O‘RQ-764-son. – 15-modda // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>

axborot agentliklari, veb-saytlar va boshqa davriy nashrlar” tushuniladi⁸. Ijtimoiy tarmoqlar ushbu ro‘yxatda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayd etilmagan. Biroq blogerlar keng auditoriya uchun ma‘lumot tarqatgani sababli, ayrim hollarda ularga nisbatan ham OAVlar uchun belgilangan javobgarlik choralari qo‘llanishi mumkin. Ushbu huquqiy “noaniqlik” ham an‘anaviy OAV jurnalistlari, ham blogerlar faoliyatida muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda blogerlar faoliyatini bevosita tartibga soluvchi alohida qonun mavjud emas. Ular asosan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa umumiy normativ-huquqiy hujjatlar doirasida faoliyat yuritadi. Mazkur qonunning 10-moddasiga ko‘ra, internetda ma‘lumot tarqatayotgan har bir shaxs, jumladan, blogerlar ham faqat qonunga zid bo‘lmagan, ishonchli va tasdiqlangan ma‘lumotlarni tarqatishi shart⁹.

Jurnalist va bloger o‘rtasidagi asosiy huquqiy farqlar:

Mezon	Jurnalist (an‘anaviy)	Bloger
Tashkiliy shakl	OAV bilan mehnat munosabati	Mustaqil yoki platforma orqali
Huquqiy kafolatlar	Axborot olish, akkreditatsiya, kasbiy himoya	Cheklangan (umumiy fuqarolik huquqlari)
Mas‘uliyat	OAV qonunchiligi bo‘yicha	Umumiy fuqarolik va ma‘muriy javobgarlik
Soliqqa tortish	Ish haqi bo‘yicha standart soliq	Tadbirkorlik faoliyati (daromad bo‘lsa)
Kasbiy sir	Mavjud va qonun bilan himoyalangan	Rasmiy jihatdan tartibga solinmagan

Mazkur farqlar amaliyotda blogerlarning huquqiy himoyasi jurnalistlarnikiga nisbatan sustroq ekanini ko‘rsatadi. Xususan, blogerlar davlat organlaridan axborot olishda jurnalistlar kabi imtiyozli huquqlarga ega emas, ularning ma‘lumot manbasini sir saqlash huquqi qonun bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kafolatlanmagan¹⁰.

Xalqaro miqyosda jurnalistlarning raqamli platformalardagi faoliyatini himoya qilishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, INMA tomonidan 2025-yilda ishlab chiqilgan “Asosiy tamoyillar” uchta ustuvor yo‘nalishni belgilaydi¹¹:

1. Jurnalistikaning demokratik asos sifatida tan olinishi: Jurnalistikaning jamoat ne‘mati sifatida qonun va amaliyotda himoya qilinishi, tahririyat mustaqilligining kafolatlanishi.

2. Adolatli kompensatsiya: Sun‘iy intellekt tizimlarida kontentdan foydalanish uchun litsenziyalash va to‘lov mexanizmlarini joriy etish. INMA hisob-kitoblariga ko‘ra, 2024-yilda raqamli platformalar jurnalistik kontent orqali qariyb 350 milliard AQSH dollari miqdorida reklama daromadi olgan, biroq mualliflarga ushbu mablag‘ning juda kichik qismi yetib borgan¹².

⁸ **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida: 2007-yil 15-yanvar, O‘RQ-78-son (2020-yil 7-oktabrdagi o‘zgartirishlar bilan). – 3-modda // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>

⁹ **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Axborotlashtirish to‘g‘risida: 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son (2022-yil 28-iyundagi o‘zgartirishlar bilan). – 10-modda // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-83472>

¹⁰ **Tursunov, M. A.** Blogerlarning huquqiy maqomi muammolari / M. A. Tursunov // O‘zbekiston huquq jurnali. – 2025. – № 2. – B. 45-47.

¹¹ **International News Media Association (INMA).** INMA unveils global Basic Principles to safeguard journalism in the digital and AI era [Electronic resource]. – 2025. – 15 Sept. – URL: <https://www.inma.org/blogs/basic-principles/post.cfm/inma-unveils-global-basic-principles>

¹² **INMA Research Department.** The value gap: How platforms profit from journalism without fair compensation // INMA Industry Report. – New York, 2025. – P. 8-12.

3. Adolatli raqobat: Yirik platformalar (Google, Meta, TikTok) ustunligiga qarshi qoidalar. Yevropa Ittifoqining “Digital Services Act” (DSA) va “Digital Markets Act” (DMA) qonunlari bu borada ilg‘or mexanizmlarni taklif etadi¹³.

O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni jurnalistlar huquqlarining keng tizimini belgilaydi. Qonunning 5-moddasida jurnalistning quyidagi asosiy huquqlari sanab o‘tilgan¹⁴:

- axborotni to‘plash, tahlil qilish, tahrir qilish, tayyorlash va tarqatish;
- davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari va boshqa tashkilotlarga axborot olish uchun murojaat etish;
- jurnalist tekshiruvi o‘tkazish;
- o‘zi tayyorlagan materiallarni imzo yoki taxallus bilan e‘lon qilish;
- axborot manbai yoki muallif nomining sir saqlanishini talab qilish;
- radio, televideniye, kino va fotosuratlar yordamida, shuningdek, ovoz yozish vositalari orqali, jumladan, yashirin ravishda yozib olish va hujjatlashtirish;
- mehnat va mualliflik shartnomalari bo‘yicha haq olish;
- sud orqali ma‘naviy va moddiy zararining qoplanishini talab qilish.

Ayniqsa, Qonunning 8-moddasida jurnalistning daxlsizligi alohida ta‘kidlangan: “Tanqidiy materiallar e‘lon qilganligi uchun jurnalistni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. Jurnalist o‘z faoliyatini amalga oshirish chog‘ida uning sha‘ni va qadr-qimmatini kamsitadigan, hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan harakatlardan davlat himoyasida bo‘ladi”¹⁵.

Ushbu norma jurnalistlarning professional faoliyatini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Qonunning 10-moddasi esa jurnalistning kasbiy faoliyati kafolatlarini mustahkamlaydi: “Jurnalistning huquqlari, sha‘ni va qadr-qimmatini qonun bilan qo‘riqlanadi.

Davlat jurnalistga axborotni erkin olishi va tarqatishini kafolatlaydi, o‘z kasbiga doir faoliyatini amalga oshirishida uning himoya qilinishini ta‘minlaydi”¹⁶. Shuningdek, mazkur moddada jurnalistni uning kasbiy faoliyatiga to‘sqinlik qilganlik, shuningdek, jurnalistni u tarqatgan axborot yoki e‘lon qilingan material tufayli quvg‘in qilganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik kelib chiqishi qayd etilgan. Bundan tashqari, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasida jurnalistning axborot olish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlarga murojaat qilish huquqi, shuningdek, ushbu murojaatlar bo‘yicha belgilangan muddatlarda (o‘n kundan kechiktirmay) javob olish huquqi mustahkamlangan¹⁷. “Axborot olishning kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun esa jurnalistlarning axborot olish sohasidagi huquqlarini yanada kengaytiradi¹⁸.

¹³ **European Parliament.** Digital Services Act (DSA): Regulation (EU) 2022/2065 // Official Journal of the European Union. – 2022. – L 277. – P. 1-102. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32022R2065>

¹⁴ **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida: 1997-yil 5-may, 402-I-son (2021-yil 29-sentabrdagi o‘zgartirishlar bilan). – 5-modda // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-9540>

¹⁵ **O‘sha qonun.** – 8-modda.

¹⁶ **O‘sha qonun.** – 10-modda

¹⁷ **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida: 2007-yil 15-yanvar, O‘RQ-78-son (2020-yil 7-oktabrdagi o‘zgartirishlar bilan). – 27-modda // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-1106870>

¹⁸ **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.** Axborot olishning kafolatlari to‘g‘risida: 1997-yil 24-aprel, 400-I-son (2021-yil 29-sentabrdagi o‘zgartirishlar bilan) // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-1319>

Xalqaro tashkilotlarning baholashicha, qonunchilikdagi ijobiy o'zgarishlarga qaramay, amaliyotda jurnalistlar huquqlarining to'liq ta'minlanishida muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. "Chegara bilmas muxbirlar" (Reporters Sans Frontières – RSF) tashkilotining 2025-yilgi Dunyoda matbuot erkinligi indeksida O'zbekiston 180 davlat orasida 157-o'rinni egallagan¹⁹. Mazkur indeks matbuot erkinligining beshta mezon asosida baholanishini o'z ichiga oladi: siyosiy va huquqiy muhit, iqtisodiy muhit, qonunchilik bazasi, ijtimoiy muhit va xavfsizlik darajasi.

RSFning 2024-yilgi mamlakat hisobotida quyidagi muammolar qayd etilgan:

- hokimiyat OAV va bloggerlar ustidan katta nazoratni amalga oshiradi;
- senzura, kuzatuv va o'z-o'zini senzura keng tarqalgan;
- ayrim mustaqil onlayn nashrlar rasmiy ro'yxatdan o'tishdan ehtiyot bo'ladi, chunki ro'yxatdan o'tish qonunchilik talablariga rioya qilish majburiyatini yuklaydi;
- "jurnalist" maqomini faqat OAV bilan shartnomaviy munosabatda bo'lgan shaxslargagina berish amaliyoti ko'plab mustaqil jurnalist va bloggerlarni huquqiy himoyadan mahrum qiladi.

RSF hisobotida, shuningdek, ayrim bloggerlarning qamoqqa olinishi holatlari (masalan, "Xalq fikri" YouTube kanali asoschisi Otabek Sattoriy 2021-yilda 6,5 yilga ozodlikdan mahrum etilgani) va Qoraqalpog'istondagi namoyishlarni yoritgan jurnalistlarga nisbatan bosim o'tkazilgani ta'kidlanadi. Ushbu ma'lumotlar qonunchilikda mustahkamlangan kafolatlar bilan amaliyot o'rtasida ma'lum tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik huquqshunoslar va jurnalistlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra (2025, n=150), jurnalistlarning 67 foizi o'z faoliyatida to'siqlarga duch kelganligini, 54 foizi esa o'zlarining kasbiy huquqlari yetarli darajada himoyalangan deb hisoblashini bildirgan. Eng ko'p qayd etilgan muammolar qatorida axborot olish uchun murojaatlarga javob berilmasligi (42%), rasmiylar tomonidan bosim o'tkazilishi (38%) va sud himoyasining sustligi (31%) qayd etilgan.

2025-yil may oyida O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida OAV va onlayn platformalar faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonun loyihasi taqdim etildi. Ushbu hujjat quyidagi yangiliklarni o'z ichiga oladi:

- onlayn platformalar va veb-saytlar egalari uchun aniq talablar belgilanishi, jumladan, saytda muassis va tahririyat to'g'risida ma'lumotlarni joylashtirish majburiyati;
- "influyenser" tushunchasining huquqiy muomalaga kiritilishi, ya'ni kuzatuvchilar soni 10 000 dan ortiq bo'lgan bloggerlarni maxsus reyestrda kiritish va ularga nisbatan reklama kontenti uchun qo'shimcha mas'uliyat belgilash;
- bolalarni zararli kontentdan himoya qilish mexanizmlarini joriy etish, jumladan, yosh cheklovlari va ota-ona nazorati tizimi;
- onlayn platformalar foydalanuvchilari huquqlarining qonuniy himoyasini ta'minlash, ya'ni shikoyat qilish va kontentni o'chirish bo'yicha shaffof mexanizmlarni joriy etish;
- axborot sohasidagi subyektlar (onlayn platformalar, bloggerlar, influencerslar, davlat organlari) o'rtasida konstruktiv muloqot uchun huquqiy asoslarni yaratish.

Qonun loyihasining muhim jihati shundaki, unda jurnalist va bloggerlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha alohida bo'lim mavjud.

¹⁹ **Reporters Sans Frontières (RSF)**. World Press Freedom Index 2025: Uzbekistan country profile [Electronic resource]. – Paris: RSF, 2025. – URL: <https://rsf.org/en/index>

Xususan, jurnalistlarning axborot olish uchun davlat organlariga murojaat qilish tartibi takomillashtirilmoqda, murojaatlarga javob berish muddati 7 kungacha qisqartirilmoqda²⁰.

Shuningdek, jurnalistlarning kasbiy faoliyatiga aralashganlik va ularga bosim o'tkazganlik uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi normalar loyihaga kiritilgan.

Biroq, huquqshunos ekspertlarning fikriga ko'ra, qonun loyihasida ayrim xavfli jihatlar ham mavjud²¹. Xususan, "inflyuenser" tushunchasining haddan tashqari keng talqin qilinishi (10 000 dan ortiq kuzatuvchiga ega har qanday blogger) va ularga yuklanayotgan majburiyatlarning noaniqligi. Shuningdek, onlayn platformalarga kontentni o'chirish bo'yicha keng vakolatlar berilishi matbuot erkinligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida xavotirlar bildirilmoqda. Qonun loyihasining qabul qilinishi va amaliyotda tatbiq etilishining aniq muddatlari hozircha belgilanmagan.

Xulosa. Raqamli transformatsiya davrida jurnalistlarning huquqiy maqomi masalasi tobora murakkablashib bormoqda. O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi.

Birinchi xulosa - "jurnalist" tushunchasining amaldagi huquqiy ta'rifi raqamli davr talablariga to'liq mos kelmaydi. "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida jurnalistning OAV bilan shartnomaviy munosabatda bo'lishi majburiy element sifatida belgilangan. Biroq, mustaqil bloggerlar, jamoat jurnalistlari va ijtimoiy tarmoqlardagi kontent yaratuvchilarning faoliyati ushbu ta'rif doirasidan chiqib ketadi. Natijada, ushbu shaxslar huquqiy himoyadan mahrum bo'lib qolmoqda.

Ikkinchi xulosa - jurnalist va blogerlarning intellektual mulk huquqlari, xususan, raqamli platformalar va sun'iy intellekt tizimlari tomonidan jurnalistik kontentdan foydalanish masalalari hali yetarlicha huquqiy tartibga solinmagan. Xalqaro tajriba (INMA, IFJ) shuni ko'rsatadiki, jurnalistik kontentdan tijoriy maqsadlarda foydalanilganda mualliflarning roziligi va adolatli kompensatsiya olishi ta'minlanishi kerak.

Uchinchi xulosa - blogerlar va inflyuenserlar faoliyatini tartibga solishda differensiallashgan yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. 2025-yilda taqdim etilgan yangi qonun loyihasida kuzatuvchilar soniga qarab oddiy bloggerlar va influenserlarga turlicha majburiyatlar belgilanishi ko'zda tutilgan. Bu xalqaro amaliyotga mos keladigan yondashuvdir.

Biroq, loyihada "inflyuenser" toifasiga kiritishning chegara mezoni (10 000 kuzatuvchi) yetarlicha asoslanmagan.

To'rtinchi xulosa - qonunchilikda jurnalistlar huquqlarining keng kafolatlari mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliyotda ushbu kafolatlarning to'liq ta'minlanmaganligi muammosi saqlanib qolmoqda. Xalqaro tashkilotlar (RSF) hisobotlari va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jurnalistlar ko'pincha axborot olishda to'siqlarga duch kelmoqda, ayrim hollarda rasmiylar tomonidan bosimga uchramoqda, sud himoyasi esa sustligicha qolmoqda.

Beshinchi xulosa - ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar jurnalistika faoliyatining muhim qismiga aylanganiga qaramay, ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalar hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Platformalarning kontentni boshqarish, o'chirish va foydalanuvchilarni blokirovka qilish bo'yicha o'z ichki qoidalari mavjud, biroq bu qoidalar ko'pincha shaffof emas va ular ustidan shikoyat qilish mexanizmlari samarasiz.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. "Ommaviy axborot vositalari va onlayn platformalar to'g'risida"gi Qonun loyihasi (muhokama uchun taqdim etilgan variant, 2025-yil aprel). – 24-25-modda // Matbuot-relizlari asosida keltirilgan ma'lumot.

²¹ Usmonov, J. T. Yangi OAV qonun loyihasining tahlili: yutuqlar va xatarlar / J. T. Usmonov // Huquqiy ekspertiza. – 2025. – № 4. – B. 12-15.

Umumiy xulosa sifatida, shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda axborot siyosati va jurnalistlarning huquqiy maqomi masalasida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. 2025-yilda ishlab chiqilgan yangi qonun loyihasi bu boradagi muhim qadamdir. Biroq, ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi va amaliyotda samarali tatbiq etilishi, shuningdek, yuqorida qayd etilgan muammolarning hal etilishi muhim ahamiyatga ega. Raqamli muhitda jurnalistlarning huquqiy maqomini mustahkamlash va matbuot erkinligini kafolatlash davrning dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida: 1997-yil 5-may, 402-I-son (2021-yil 29-sentabrdagi o‘zgartirishlar bilan) // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/948030>.
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida: 2007-yil 15-yanvar, O‘RQ-78-son (2020-yil 7-oktabrdagi o‘zgartirishlar bilan) // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/142102>.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Axborotlashtirish to‘g‘risida: 2003-yil 11-dekabr, 560-II-son (2022-yil 28-iyundagi o‘zgartirishlar bilan) // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/6087023>.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kiberxavfsizlik to‘g‘risida: 2022-yil 15-aprel, O‘RQ-764-son // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/6184103>.
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Axborot olishning kafolatlari to‘g‘risida: 1997-yil 24-aprel, 400-I-son (2021-yil 29-sentabrdagi o‘zgartirishlar bilan) // Lex.uz: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/2378284>.
6. Digital Services Act (DSA). Regulation (EU) 2022/2065 of the European Parliament and of the Council // Official Journal of the European Union. – 2022. – L 277. – P. 1-102. – URL: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32022R2065>.

Rasmiy ma’ruzalar va hisobotlar:

7. Mirziyoyev, Sh. M. OAV va blogerlar bilan uchrashuvdagi nutqi: 2023-yil 27-dekabr [Elektron resurs] / Sh. M. Mirziyoyev // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – URL: <https://president.uz>.
8. O‘zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar: 2024-yil yakunlari bo‘yicha hisobot. – Toshkent: AOKA, 2025. – 25 b.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. “Ommaviy axborot vositalari va onlayn platformalar to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi: 2025-yil aprel (muhokama uchun taqdim etilgan variant). – Matbuot-relizlari asosida keltirilgan ma’lumot.

Ilmiy maqolalar va nashrlar:

10. Karimov, B. A. Raqamli muhitda bloger va jurnalist maqomining huquqiy farqlari / B. A. Karimov // Huquq va boshqaruv. – 2024. – № 3. – B. 58-62.

11. Tursunov, M. A. Blogerlarning huquqiy maqomi muammolari / M. A. Tursunov // O‘zbekiston huquq jurnali. – 2025. – № 2. – B. 45-47.
12. Usmonov, J. T. Yangi OAV qonun loyahasining tahlili: yutuqlar va xatarlar / J. T. Usmonov // Huquqiy ekspertiza. – 2025. – № 4. – B. 12-15.

Xalqaro elektron resurslar:

13. International News Media Association (INMA). INMA unveils global Basic Principles to safeguard journalism in the digital and AI era [Electronic resource]. – 2025. – 15 Sept. – URL: <https://www.inma.org/blogs/basic-principles/post.cfm/inma-unveils-global-basic-principles>.
14. International Federation of Journalists (IFJ). Authors’ rights: policy brief [Electronic resource]. – Brussels: IFJ, 2025. – P. 4-6. – URL: <https://www.ifj.org/authors-rights>.
15. INMA Research Department. The value gap: How platforms profit from journalism without fair compensation // INMA Industry Report. – New York, 2025. – P. 8-12.
16. Reporters Sans Frontières (RSF). World Press Freedom Index 2025: Uzbekistan country profile [Electronic resource]. – Paris: RSF, 2025. – URL: <https://rsf.org/en/index>.